MAKTAB O‘QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH: NAZARIYA. INNOVATSIYA. AMALIYOT

Rajabov Sardor Baxtiyorovich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy maktab ta’limida o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati va pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘quvchilarda yosh xususiyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich shakllantirish, amaliy mashg‘ulotlar, ijodiy topshiriqlar, loyihalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarda tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash, mas’uliyat, ijodkorlik, moliyaviy savodxonlik va muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik kompetensiyasi, tadbirkorlik ta’limi, o‘quvchi, tashabbuskorlik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, moliyaviy savodxonlik, biznes loyiha, startap, raqamli ta’lim, media ta’lim, kasbiy kompetensiya.

Аннотация. В статье освещаются значение и педагогические возможности развития предпринимательских компетенций учащихся в современной системе школьного образования. Анализируются вопросы поэтапного формирования предпринимательских навыков с учётом возрастных особенностей учащихся, использования практических занятий, творческих заданий, проектов и современных образовательных технологий. Также представлены предложения и рекомендации по развитию инициативности, самостоятельного мышления, ответственности, креативности, финансовой грамотности и навыков самостоятельного решения проблем у учащихся.

Ключевые слова: предпринимательская компетентность, предприни-мательское образование, учащийся, инициативность, креативность, самостоятельное мышление, финансовая грамотность, бизнес-проект, стартап, цифровое образование, медиаобразование, профессиональная компетентность.

Abstract. The article highlights the importance and pedagogical potential of developing students’ entrepreneurial competencies in

modern school education. It examines the gradual development of entrepreneurial skills according to students' age characteristics, as well as the use of practical activities, creative tasks, projects, and modern educational technologies. The article also provides suggestions and recommendations for developing students' initiative, independent thinking, responsibility, creativity, financial literacy, and problem-solving skills.

Keywords: entrepreneurial competence, entrepreneurship education, student, initiative, creativity, independent thinking, financial literacy, business pro-ject, startup, digital education, media education, professional competence.

Bugungi kunda O‘zbekiston maktab ta’limi tizimida har bir o‘quvchida tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish - nafaqat kerak, balki zamonaviy ta’limning strategik maqsadi hisoblanadi. Chunki tadbirkorlik - XXI asrning asosiy kompetensiyalaridan biri. YUNESKO va Yevropa ta’lim tashkilotlari ta’kidlaganidek, XXI asrda har bir fuqaro ijodkor, tashabbuskor, muammolarni mustaqil hal qiluvchi va o‘z g‘oyasini amalga oshira oladigan shaxs bo‘lishi kerak. Tadbirkorlik kompetensiyasi - aynan shu ko‘nikmalar majmuasini rivojlantiradi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish hisoblanadi. Bu borada ta’lim jarayonida amaliy yo‘naltirilgan pedagogik usullarning ahamiyati ortib bormoqda. Maktablarimizda tadbirkorlik ta’limi va o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari keng muhokama qilinmoqda. Bu jarayonning pedagogik jihatlari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, amaliy mashg‘ulotlar



va loyihalar orqali o‘quvchilarda biznes reja tuzish, moliyaviy boshqaruv, marketing tushunchalari kabi ko‘nikmalarni shakllantirish usullari ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik fazilatini bolalikdan shakllantirib borish o‘ta muhim, yangi pedagogik vazifani paydo qiladi.

Tadbirkorlik fazilati – ya’ni tashabbuskorlik, mas’uliyat, yangicha g‘o- yalarga qiziqish, muammolarni hal etish qobiliyati. U bolalarda muayyan yoshdan boshlab shakllanishni boshlaydi. Masalan, 6-9 yosh (boshlang‘ich sinflar) bolalarda qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, taqlid qilish orqali o‘rganish kuchli bo‘ladi. Albatta bu yoshda tadbirkorlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, o‘yinlar, rolli mashg‘ulotlar, ijodiy topshiriqlar orqali shakllantirish mumkin. Masalan, sav-do o‘yinlari (do‘kon sotuvchisi-xaridor rollarida). Kichik loyihalar: savatcha, buyum, narsalar yasash va sotish kabi o‘quv bizneslari. 10-13 yosh (o‘rta sinflar)da bolalar mustaqil qaror qabul qilish va o‘z g‘oyasini ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘la boshlaydi. Ularda jamoada ishlash, mas’uliyatni his qilish, kichik g‘oyalar orqali “pul ishlash” qiziqishi paydo bo‘ladi. Masalan, mahalliy yarmarkalarda qo‘l mehnati mahsulotlarini sotish, onlayn do‘kon tushunchasi bilan tanishish va h.k.

14-17 yoshga kelib, tadbirkorlik fazilatlari falsafiy, ijtimoiy, va amaliy jihatdan shakllanadi. O‘quvchilar g‘oyalar, jumladan, biznes g‘oyalar to‘g‘risida mustaqil fikr yurita boshlashadi. Biznes reja, byudjet, marketing tushunchalarini anglaydi. Tadbirkor sifatida harakat qilishni boshlashi mumkin. Bu yoshdagi bolalar uchun tadbirkorlik to‘garaklari, tanlovlar tashkil qilinib, ularning startap g‘oyalarini rivojlantirish mumkin.

Pedagog va psixologlarning yakdil fikricha, 7-8 yosh bolada tadbirkorlikka xos insonlararo ko‘nikmalar (aloqa, yetakchilik, tashabbus) rivojlana boshlaydigan bosqichdir. Lekin tadbirkorlik ko‘nikmasi 12 yoshda mustaqil namoyon bo‘ladi.

Konvergent tadqiqotlarga ko‘ra, tadbirkorlik ko‘nikmasini tarbiyalashni 6 yoshdanoq o‘yin, ijodiy topshiriqlar va modellash orqali tarbiyalay boshlash mumkin. Buni bolaning yoshiga mos usullar bilan, bosqichma-bosqich rivojlantirish kerak. Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida bu fikrni tasdiqlaganlar. Avvalo shuni aytish kerakki, OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) - Xalqaro tashkiloti hisobotida dunyo mamlakatlariga “Tadbirkorlik ta’limi boshlang‘ich maktabdan boshlanishi mumkin, u ijodkorlik, tashabbuskorlik va jamoada ishlash salohiyatini rivojlantiradi. Ta’lim qanchalik erta boshlansa, u bolalarning kelajakdagi kasbiy orzulariga shunchalik ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi”, degan o‘ta muhim xulosa va tavsiyani bergan.

Fransuz pedagogi Jan Piaje tadbirkorlik fazilatlari bolalarda qaysi yoshdan namoyon bo‘lishi haqida fikrlab, “7-11 yoshda bolalar mantiqiy fikrlashni, rejalashtirishni va sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunishni o‘rganadilar - bu tadbirkorlik tafakkurining asosidir”, degan xulosaga keladi.

Ko‘p intellekt nazariyasi muallifi Hovard Gardner esa "Tadbirkorlik qobiliyati alohida intellekt turi emas, balki shaxslararo, shaxsiy va mantiqiy qobiliyatlar- ning birlashmasidir va bu imkoniyatlar maktabning boshlang‘ich bosqichidanoq rivojlantirilishi mumkin”, deb hisoblaydi.

Tadbirkorlik tafakkuri nazariyasi (Effectuation)ning muallifi Saras Sarasvachi buni muhit bilan bog‘liq, deb hisoblaydi va “Agarda to‘g‘ri muhit yaratilsa, 10 yoshli bolalar ham imkoniyatni ko‘ra bilish va mavjud resurslardan samarali foydalanish kabi tadbirkorlik fazilatlarini namoyon etishi mumkin”, deydi.

Masalaning iqtisodiy jihati shundaki, tadbirkorlik kompetensiyalari o‘quv- chilarni joriy mehnat bozoriga tayyorlaydi. Bu juda muhim. Chunki butun dunyoda, O‘zbekistonda ham mehnat bozori shiddat bilan o‘zgarib borayapti, davlat ish o‘rinlari cheklangan. Yangi startaplar, kichik biznes va onlayn ish shakllari ko‘payib, avtomatlashuv va raqamlashtirish jarayoni kuchayayapti. Mana shunday sharoitda har bir o‘quvchida tadbirkorlik kompetensiyasi rivojlantirilgan bo‘lsa, u nafaqat ish izlaydi, balki o‘zi o‘ziga ish o‘rni yaratadi, bozordagi ehtiyojni o‘rganib, topib, mas’uliyat bilan, erkin harakat qiladi. Tadbirkorlik kompetensiyalari rivojlantirilgan o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Shuni yaxshi bilishimiz kerakki, tadbirkorlik faqat pul ishlash emas, balki muammoga boshqacha qarash, yangi yechim topish, resurslarni boshqarish, jamoa bilan ishlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu ko‘nikmalar barcha sohalarda (huquq, tibbiyot, fan, ta’lim va h.k.) muvaffaqiyatga yetaklaydi.

Tadbirkorlik ko‘nikmasi o‘quvchida shaxsiy mas’uliyat va mustaqillikni shakllantiradi. Ya’ni tadbirkorlik kompetensiyasi bor o‘quvchi o‘z kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi. Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqmaydi, chunki unga riskni to‘g‘ri baholash o‘rgatilgan bo‘ladi.

11-sinflarda joriy qilingan "Tadbirkorlik asoslari” darsligi o‘quvchilarda tadbirkorlik tushunchasini, biznes reja tuzish, moliyani boshqarish, bozor tahlili kabi asosiy bilimlarni shakllantiradi. Darslikda o‘quvchilar tadbirkorlik nima va uning jamiyatdagi ahamiyati, biznes g‘oya va startap tushunchasini, biznes reja tuzish qadamlarini, moliyani boshqarish va xarajat, daromad kabi tushunchalarni bilib oladi. Shu bilan birga ular marketing asoslari, soliq va davlat bilan munosabatlar,

jamoa bilan ishlash, yetakchilik va muloqat ko‘nikmalarini ham o‘rganadi.

Bu yo‘nalishda ish asosan o‘quv dasturlari, qo‘shimcha to‘garaklar va amaliy mashg‘ulotlar orqali tashkil etiladi. Tadbirkorlikka oid bilimlar quyi sinflarda asosan “Texnologiya” fani doirasida o‘qitiladi. Bu fan orqali o‘quvchilarga ishlab chiqarish jarayonlari, kasb-hunar asoslari va tadbirkorlik ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Maktablarda tadbirkorlikka qiziqishi bor o‘quvchilar uchun maxsus to‘garak va klublar tashkil etilgan. Ularda biznes reja tuzish, bozor tahlili va moliyaviy savodxonlik kabi mavzularda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. O‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadida maktablarda kichik biznes loyihalari va startaplar uyushtiriladi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini amalga oshirish va real tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Muvaffaqiyatli tadbirkorlar bilan uchrashuvlar va mahorat darslari tashkil etilib, o‘quvchilarga real tajribalar va maslahatlar taqdim etiladi. Bu yo‘nalishlar orqali O‘zbekiston maktablarida tadbirkorlik ta’limi tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Bu yo‘nalishda asosiy yuk o‘qituvchilarning zimmasiga tushadi. Shuning uchun “Tadbirkorlik asoslari” fani o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va ularni motivatsiyalash, udarga zamonaviy metodika [start-up, dizayn fikrlash, agile usullari), onlayn kurslar va malaka oshirish dasturlarini o‘rgatish kerak. Shu maqsadda har yili “Eng yaxshi tadbirkorlik o‘qituvchisi” tanlovini o‘tkazish, tanlovlar va grant asosida yoshlar g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, “Yosh tadbirkorlar chempionati”ni maktab, tuman, viloyat va respublika bosqichida tashkil qilish, g‘oliblarga noutbuk, kitob, startap uchun kichik grant kabi mukofotlar berish va bu ishga biznes-homiylarni jalb qilish yaxshi samara beradi. Tadbirkorlik mashg‘ulotlari zamonaviy, raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslanmasa, samarasi past bo‘ladi. Shuning uchun onlayn tadbirkorlik platformalari: videodars.uz, ta’lim.uz, kitob.uz uzedu.uz orqali videodarslar, interaktiv o‘yinlar, keyslar yaratish, ochiq ma’lumotlar bazasida “Yosh tadbirkorlar uchun elektron kitoblar to‘plami”ni joriy qilish samara beradi. Maktab o‘quvchilarining tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish tajribasini, biznes inkubatorlari tarmog‘ini hamda o‘quvchilarning iqtisodiy vatanparvarlik tashabbuslarini ommalashtirishga qaratilgan "Biznes- pedagogika.uz" raqamli platformasiyaratish esa sohaga IT va AI vositalarini keng joriy qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tadbirkorlik kompetensiyasi Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti uchun o‘ta muhim va bebaho resursdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlik ta’limiga katta e’tibor qaratayotgani bejiz emas, zero inson kapitali - iqtisodiyotning asosiy drayveri. Tadbirkor, tashabbuskor yosh-

lar - yangi ish o‘rinlari yaratuvchi, innovatsiya kirituvchi, soliq to‘lovchi fuqarolar bo‘lib yetishadilar. Shuning uchun bugun mak- tablarimizda tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega yoshlarni tayyorlash - davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-406-son, 2016-yil 14-sentabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

4. OECD. Entrepreneurship Education at School in Europe. – Paris: OECD Publishing.

5. European Commission. EntreComp: The Entrepreneurship Competence Framework. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2016.

6. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris: UNESCO, 2016.